

1. Mahmud Koshg'ariyga tegishli bo'lgan asarni toping.

- A) "Yer tasviri"
- B) "Devonu lug'atit turk"
- C) "Safarnoma"
- D) "Jo'g'rofiya"

2. Ekvator chizig'i ustiga yozib qo'yilgan darajalar yordamida nimalar aniqlanadi?

- A) geografik kenglik
- B) shimoliy kenglik
- C) geografik uzunlik
- D) daraja to'ri

3. 65 mln yil avval Lavraziyadan qaysi materiklar ajralib chiqqan?

- A) Avstraliya va Antarktida
- B) Janubiy Amerika va Yevrosiyo
- C) Afrika va Avstraliya
- D) Yevrosiyo va Shimoliy Amerika

4. Matnni o'qing.

"Tog'lari kaledon, gersin, mezozoy tog' burmalanishlarida ko'tarilgan. Lekin alp burmalanishida yoshargan. Tekisliklarda, asosan, cho'kindi tog' jinslari uchrasa, tog'li o'lkalarda magmatik va metamorfik tog' jinslari tarkib topgan".

Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.

- A) Yevrosiyo
- B) Janubiy Amerika
- C) Afrika
- D) Shimoliy Amerika

5. Xalmaxer, Seram dengizlari qaysi okeanda joylashgan?

- A) Tinch
- B) Atlantika
- C) Hind
- D) Shimoliy Muz

6. Matnni o'qing.

Ushbu okean dengiz sayozliklarida, marjon riflari atrofida organizmlar eng ko'p tarqalgan. Bu yerlarda haqiqiy suvosti o'tloqlarini uchratish mumkin. Tropik mintaqalarida planktonlar ko'p. **Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi okeanga oid ekanligini aniqlang.**

- A) Atlantika
- B) Tinch
- C) Hind
- D) Shimoliy Muz

7. 7,5 ming tur o'simlik uchraydigan yarimorolni belgilang.

- A) Koreya
- B) Hindixitoy
- C) Hindiston
- D) Malakka

8. Matnni o'qing.

"Materikda suv oqimiga ko'ra ko'llar oqar, oqmas ko'llarga bo'linadi. Sun'iy ko'llar ham mavjud. Materik yerosti suvlariga ham boy. Yirik tekisliklarning tagida yerosti suvlarining juda katta zaxirasi bor. Geyzerlar, buloq suvlari ham yerosti suvlarini tashkil etadi". **Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.**

- A) Yevrosiyo
- B) Janubiy Amerika
- C) Afrika
- D) Shimoliy Amerika

9. Quyidagi variantlar ichidan so'ngan vulqonlarni toping.

- A) Aogasima, Kotopaxi, Kazbek
- B) Chimboraso, Keniya, Elbrus
- C) San-Pedro, Krakatau, Vezuviy
- D) Fudziyama, Elbrus, Lamington

10. Janubiy Amerika materigiga oid to'g'ri ma'lumotlar berilgan javobni toping.

A) Aholisi juda notekis joylashgan. Aholini joylashishiga birinchi navbatda tabiiy sharoit ta'sir etgan bo'lsa, keyingi navbatda tarixiy sabablar ta'sir ko'rsatgan. Yevropadan ko'chib kelgan aholi, asosan, iqlim sharoiti yaxshi yerlarda yashaydi.

B) Aholi materikda juda notekis o'rashgan. Aholini ko'chligi okeanlar sohillarida, ya'ni kelgindilar ko'chib kelgan yerlarda yashaydi. Materikning keng ichki tekisliklarida aholi siyrak o'rashgan.

C) Aholini joylashishi, avvalo, materikka aholini ko'chib kelishi tarixiga va tabiiy sharoitga bo'gliq. Materikning janubiy yarmida aholi eng ko'p o'rashgan. Materikning Yevropa mamlakatlaridan dastlabki ko'chib kelgan kishilar joylashgan sharqiy qismida aholini zichligi katta.

D) Boshqa aholi yashaydigan materiklardan aholi zichligining kichikligi bilan ajralib turadi. Aholini ko'p qismi materikning yashash uchun qulay bo'lgan sharqiy, janubi-sharqiy va janubi-g'arbiy chekkalarida to'plangan.

11. Ko'kyong'oq va Qizilqiya konlaridan qanday foydali qazilma qazib olinadi?

- A) oltin
- B) qo‘ng‘ir ko‘mir
- C) neft
- D) toshko‘mir

12. Matnni o‘qing.

“Okrug adirlarida shuvoq, burg‘un, bug‘doyiq, kavrak, oqquray, qo‘ziquloq, qurg‘oqchil va toshloq yerlarda bir yillik astragal, chiy kabilar o‘sadi. 1500—2500 metr balandliklarda o‘tlardan bug‘doyiq, shuvoq, tipchoq, javdar, shirach, daraxtlardan archa, yong‘oq, zarang, qayin, tol, terak, bodom, pista, olcha, do‘lana o‘sadi”.

Matndagi ma’lumotlar qaysi okrugga tegishli ekanligini toping.

- A) Qashqadaryo
- B) Farg‘ona
- C) Surxondaryo
- D) O‘rta Zarafshon

13. Chirchiq daryosiga chap tomonidan qo‘shiladigan soylarni toping.

- A) Quranqulsoy, Glavasoy, Oqsoqotasoy
- B) Parkentsoy, Zarkentsoy, Oqtoshsoy
- C) Qizilsuvsoy, Qoraqiyasoy, Achisoy
- D) Qushchisoy, Oqtoshsoy, Parkentsoy

14. “Asosiy tuprog‘i sur-qo‘ng‘ir bo‘lib, chirindi miqdori oz (0,5—0,8 foiz), sho‘rlashgan. Shuningdek, botiqlarda sho‘rxoklar, sho‘rxok-botqoq tuproqlar va qumli tuproqlar tarqalgan”. Ushbu ta’rif qaysi tabiiy geografik okrugga tegishli?

- A) Quyi Amudaryo
- B) Qizilqum
- C) Quyi Zarafshon
- D) Ustyurt

15. Surxondaryo tabiiy geografik okrugiga oid ma’lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Okrugning markaziy qismidagi sho‘rxok yerlarda pashmak, baliqko‘z, seta, sho‘ra, yulg‘un, qumli yerlarida esa juzg‘un, quyonsuyak, saksovul o‘sadi. Adirlarda bahorda rang, qo‘ng‘irbosh, shaytonkavush o‘sadi, ular yozda qurib qoladi, so‘ngra oq kavrak, oq shuvoq, qizil burgan, chalov o‘sishni davom ettiradi.
- B) Okrugning 500 – 1200 m balandliklarida qo‘ng‘irbosh, bug‘doyiq, kakra, bo‘tako‘z, marmarak, sariqchoy, butalardan do‘lana, tog‘olcha, achchiq bodom uchraydi. 1200—2500 m balandliklarda har xil o‘tlar, bodom, do‘lana, zirk, archa, yong‘oq, zarang, Tyanshan yeli, qayin, tol, terak, olma, olcha va boshqalar o‘sadi.

C) Okrugning 500 metr balandlikkacha bo‘lgan qismida cho‘l mintaqasiga oid o‘simliklardan rang, iloq, qo‘ng‘irbosh, no‘xatak, shuningdek, shuvoq va boshqa o‘simliklar o‘sadi. Yirik daryo qayirlarida to‘qay o‘simliklari mavjud. Yerosti suvlari yer betiga yaqin bo‘lgan joylarda sho‘ralar o‘sadi. Okrugning janubiy qismidagi qumloqlarda juzg‘un, qum ilog‘i, quyonsuyak kabi o‘simliklar uchraydi.

D) Okrug adirlarida shuvoq, burg‘un, bug‘doyiq, kavrak, oqquray, qo‘ziquloq, qurg‘oqchil va toshloq yerlarda bir yillik astragal, chiy kabilar o‘sadi. 1500—2500 metr balandliklarda o‘tlardan bug‘doyiq, shuvoq, tipchoq, javdar, shirach, daraxtlardan archa, yong‘oq, zarang, qayin, tol, terak, bodom, pista, olcha, do‘lana o‘sadi.

16. «Kompressor» zavodi qaysi shaharda joylashgan?

- A) Samarqand
- B) Andijon
- C) Toshkent
- D) Chirchiq

17. “Viloyat maydoni mamlakat maydonining 9 %, aholisining 5,7 % ini tashkil etadi.

Viloyatning ayrim hududlarida sizot suvlari yer yuziga yaqinligi, yog‘in kamligi, cho‘lda qum ko‘chishi kabi salbiy hodisalar yer fondidan foydalananishda ortiqcha mehnat va mablag‘ talab etadi”. Ushbu ta’rif qaysi viloyatga tegishli?

- A) Xorazm
- B) Qashqadaryo
- C) Buxoro
- D) Jizzax

18. Jahonda elektrotexnika, elektronika sanoatining rivojlanganligi bo‘yicha qaysi davlat yetakchilik qiladi?

- A) Yaponiya
- B) Xitoy
- C) AQSH
- D) Germaniya

19. Neft va gaz konlarining asosiy qismi Yevropaning qaysi davlatlarida joylashgan?

- A) Niderlandiya, Belgiya
- B) Buyuk Britaniya, Norvegiya
- C) Bolgariya, Ruminiya
- D) Fransiya, Italiya

20. Soya, yeryong‘oq, zaytun yetishtirishda yetakchi bo‘lgan davlatlarni belgilang.

- A) Xitoy, Hindiston, AQSH
- B) Argentina, Xitoy, Turkiya
- C) AQSH, Hindiston, Italiya

D) Braziliya, Nigeriya, Ispaniya

21. Afrika qit'asidagi maydoni eng katta bo'lgan subregionni toping.

- A) Markaziy Afrika
- B) Shimoliy Afrika
- C) G'arbiy Afrika
- D) Sharqiy Afrika

22. Matnni o'qing.

"Mamlakatda neft, ko'mir, temir rudasi, boksit, nikel, uran, olmos va boshqa foydali qazilmalarning yirik konlari mavjud. Hududining katta qismi ekvatorial va subekvatorial iqlim mintaqalarida joylashganligi sababli iqlim sharoitiga yuqori darajadagi namgarchilik va issiqlik xosdir".

Matndagi ma'lumotlar qaysi mamlakatga tegishli ekanligini toping.

- A) Avstraliya
- B) Braziliya
- C) Malayziya
- D) Indoneziya

23. Matnni o'qing.

"Subregion siyosiy xaritasida o'tgan asrning oxirida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ahamiyatlisi shundaki, subregiondagi ayrim davlatlarning mustaqillikka erishish jarayoni tinch ravishda kechmasdan, harbiy ziddiyat, millatlararo va dinlararo fuqarolik urushlarni keltirib chiqardi. Subregionining yana bir xususiyati biron ta ham monarxiya davlati yo'qidan iborat". **Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi subregionga oid ekanligini toping.**

- A) Sharqiy Yevropa
- B) G'arbiy Yevropa
- C) Shimoliy Yevropa
- D) Janubiy Yevropa

24. Fransiya sanoatiga oid to'g'ri ma'lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Sanoatining yetakchi tarmoqlari qatoriga avtomobilsozlik, aviasozlik, qishloq xo'jalik mashinasozligi, kimyo va farmasevtika sanoatlari kiradi. Elektr energiyasi, asosan, IESlarda ishlab chiqariladi.
- B) Sanoatining yetakchi tarmoqlari qatoriga mashinasozlik, kimyo, farmasevtika, ko'mir, qora metallurgiya, oziq-ovqat sanoati kiradi. Mashinasozlik tarmoqlaridan esa stanoksozlik, avtomobilsozlik, elekrotexnika, mikroelektronika, kemasozlik, aviakosmik mashinasozlik kabi tarmoqlari juda yuqori darajada rivojlangan.

C) Sanoati tarkibida mashinasozlik, kimyo va neft-kimyo, qora va rangli metallurgiya hamda oziq-ovqat sanoatlari yetakchi ahamiyatga ega. Mamlakat avtomobil, kema, samolyot, dastgohlar, mineral o'g'itlar, soda, polimerlar, parfyumeriya va kosmetika, vino, pishloq va boshqa ko'plab mahsulotlarni ishlab chiqarish va jahon bozoriga yetkazishda alohida ajralib turadi.

D) Sanoatining yetakchi tarmoqlari sifatida mashinasozlik (ayniqsa avtomobilsozlik va maishiy texnika ishlab chiqarish), kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoatlari ajralib turadilar. Mamlakat yengil avtomobil, motosikl, muzlatgich, velosiped, jun gazlamalari, kiyim-kechak, poyabzal, zaytun moyi, pishloq, vino, meva va tomat konservalari kabi mahsulotlarning jahondagi eng ko'zga ko'rigan eksportyorlaridan biringdir.

25. Qaysi ritmiklikning sababi quyi kengliklarda namlik bilan, mo'tadil kenglikda quyosh radiatsiyasi faolligining o'zgarishi bilan, qutbiy kengliklarda esa yorug'lik bilan bog'liq?

- A) ko'p asrlik
- B) asr ichidagi
- C) sutkalik
- D) yillik

26. Shimoli-sharqiy megalopolisidagi eng yirik aglomeratsiyani toping.

- A) Vashington
- B) Baltimor
- C) Pittsburg
- D) Nyu-York

27. "Och tusli teri, to'lqinsimon yoki tekis, yumshoq soch, asosan, moviyrang ko'z, qirra burun, yupqa va o'rta labga ega bo'lgan ushbu irq vakillari Yevropa, Amerika, Avstraliya va Okeaniya aholisining asosiy qismini tashkil qiladi. Shuningdek, Osiyoning janubiy, janubi-g'arbiy, markaziy, Afrikaning shimoliy qismlarida ham istiqomat qiladilar". Ushbu ta'rif qaysi irq vakillariga tegishli?

- A) negroid
- B) mongoloid
- C) avstraloid
- D) yevropeoid

28. "Shaharda politexnika instituti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent tibbiyot akademiyasi hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutlarining filiallari faoliyat ko'rsatadi. Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti bor". Ushbu ta'rif mamlakatimizdagi qaysi shaharga tegishli?


- A) Andijon
- B) Namangan
- C) Qo‘qon
- D) Farg‘ona

29. Ushbu yozuvsız xaritada 2 va 3 raqamlar bilan qaysi dengizlar tasvirlangan?



- A) Bofort, Baffin
- B) Bering, Labrador
- C) Chukotka, Grenlandiya
- D) Baffin, Labrador

30. Yevroсиyo materining yozuvsız xaritasida 1 raqami bilan qaysi tizma tasvirlangan?



- A) Stanovoy
- B) Verxoyansk
- C) Sayan
- D) Oltay

31. O‘rta Osiyoning yozuvsız xaritasida G‘alaba cho‘qqisi qaysi raqam tasvirlangan?



- A) 1
- B) 2
- C) 3
- D) 4

32. Ushbu yozuvsız xaritada 2 va 4 raqamlar bilan qaysi suv omborlari tasvirlangan?



- A) Qalqama va Tallimaron
- B) Tallimaron va Chimqo‘rg‘on
- C) Hisorak va Pachkamar
- D) Chimqo‘rg‘on va Tallimaron

33. Quyidagi tog‘larning balandligini o‘zaro muvofiqlikda belgilang.

Nº	Tog‘ nomi	Variantlar	Balandligi, metr
1	Axaggar	a	3 415
2	Tibesti	b	2 918
3	Darfur	c	3 088

- A) 1-c, 2-b, 3-a
- B) 1-b, 2-a, 3-c
- C) 1-b, 2-c, 3-a
- D) 1-c, 2-a, 3-b

34. Yevropa qit’asidagi monarxiya davlatlari jadvalida to‘g‘ri berilgan qatorlarni toping.

Nº	Davlatlar
1	Andorra
2	San-Marino
3	Ispaniya
4	Shveysariya
5	Niderlandiya
6	Malta


- A) 1, 3, 6
 B) 2, 4, 6
 C) 1, 3, 5
 D) 2, 4, 5

35. Osiyo subregionlari jadvalida C harfi o'rniga qaysi javob mos keladi?

Nº	Davlatlar	Subregion
1	C	Janubi-g'arbiy Osiyo
2	Xitoy	Sharqiy Osiyo
3	Indoneziya	Janubi-sharqiy Osiyo
4	Butan	Janubiy Osiyo

- A) Pokiston
 B) Maldiv orollari
 C) Suriya
 D) Bangladesh

36. Quyidagi chizmadan foydalanib, B nuqtaning mutlaq balandligini aniqlang.




- A) 450 m
 B) 550 m
 C) 350 m
 D) 250 m

37. Toshkent shahrida turgan kuzatuvchi 99° sharqiylaridagi joylashgan kuzatuvchidan Quyosh chiqishini necha soat keyin ko'radi?

- A) 2
 B) 3
 C) 4
 D) 5

38. Quyidagi chizmadan foydalanib, o'rtacha yillik haroratni aniqlang.



- A) +9,8 °C
 B) +10,9 °C
 C) +10,4 °C
 D) +11,2 °C


39. Dengiz sathida havoning me'yoriy bosimi 760 mm Hg ga teng bo'lsa, qaysi shaharda havo bosimi 710,4 mm Hg ga teng bo'ladi?

- A) Jizzax
 B) Andijon
 C) Namangan
 D) Kattaqo'rg'on

40. "O'lkaning zamini paleozoy erasida vujudga kelgan plitadan iborat. Uning usti mezozoy va kaynozoy eralarining turli xil qalinlikdagi yotqiziqlari bilan qoplangan. Paleozoy davri yotqiziqlari o'lkaning chekka qismlarida ko'zga yaqqol tashlanadi. Neft va ko'mir hududning asosiy foydali qazilmalarini tashkil qiladi". Ushbu ta'rif qaysi tabiiy geografik o'lkaza tegishli?

- A) Sharqiy Sibir
 B) Markaziy Osiyo
 C) Janubiy Osiyo
 D) G'arbiy Sibir

41. Quyidagi diagrammalarda berilgan ko'rsatkichlar qaysi viloyatga mos keladi?



- A) Andijon
- B) Sirdaryo
- C) Farg'ona
- D) Namangan

42. AQSHning qaysi shtatlarida neft-gaz sanoatining eng yirik rayonlari shakllangan?
1) Florida; 2) Texas; 3) Arizona; 4) Kaliforniya; 5) Nevada; 6) Alyaska.

- A) 1, 4, 6
- B) 2, 3, 5
- C) 1, 3, 5
- D) 2, 4, 6

43. Sharqiy Afrika subregionining aholi zichligi 2016-yil holatiga ko'ra 60,1 kishi/km² ni, maydoni esa 6,3 mln km² ni tashkil qildi. 2016-yil holatiga ko'ra Sharqiy Afrika subregioni aholisi qanchani tashkil qilgan?

- A) 357,9 mln
- B) 372,5 mln
- C) 384,1 mln
- D) 378,6 mln

44. 2019-yil holatiga ko'ra, Sirdaryo viloyatining shahar aholisi 354,7 ming kishini, qishloq aholisi 425 ming kishini tashkil qildi. Sirdaryo viloyatining urbanizatsiya darajasini toping.

- A) 45,4 %
- B) 46,1 %
- C) 44,8 %
- D) 47,5 %

45. Qachon arab davlatlar ligasi o'z qo'shinlarini Falastin yerlariga olib kirdi?

- A) 1948-yil 22-aprel
- B) 1948-yil 15-may
- C) 1948-yil 8-iyun
- D) 1948-yil 27-may